

2018-YIL – FAOL TADBIRKORLIK, INNOVATSION G'OYALAR
VA TEXNOLOGIYALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:2 (67167)
2018-yil 8-yanvar

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

14-YANVAR – VATAN HIMOIYACHILARI KUNI

GULXONA O'ZBEKISTON!

*Boshimda nurli osmon,
Menman Vatanga posbon!
Duolaring ijobat
Bo'lsin, aziz Onajon!*

*Ey, ona O'zbekiston,
Gulxona O'zbekiston!
Kездim quchoqlaringda,
Mardona O'zbekiston!*



**Hech kimga hech qachon bo'lmagay qaram,
Ona yurt qoshida tiz cho'kkan o'g'lon.
Eng ulug' qasam bu – onaga qasam,
Eng buyuk qasam bu – yurtga begumon!
Iqbol MIRZO**

Tong yulduzi

O'G'IL BOLANING BAHOSI



H. HAMIDULLAYEV olgansiz

**Bo'lajak yurt posboni-yu sar-
dori bo'lgan o'g'lonlarning marralari baland,
so'zlari bitta, amallari esa puxta bo'lmog'i
lozim. Qani ayting-chi, sizning asosiy
vazifangiz – bilim olib, hunar egallamoq-
ning qanchalik uddasidan chiqmoqdasiz?
Baholaringiz besh, sportdagi natijala-
ringiz ham a'lomi? «Albatta», dey-
sizmi, barakalla!**

Singlimga ham doim meni namuna qilib ko'rsatishlarini yaxshi bilaman. Kelajakda kimyogar bo'lishimni aytganimda, dadam buning uchun avvalo, har tomonlama bilimli bo'lmog'im kerakligini uqtiradilar. Sakkiz yil mobaynida faqat a'lo bahoga o'qidim. Hozir ta'til bo'lishiga qaramay, fan olimpiadalariga tayyorlanmoqdaman. Qolaversa, ikki yildan buyon tumani-mizdagi sport kompleksidagi tennis mashg'ulotlariga qatnayman. Bo'sh vaqtimda eski o'yinchoqlarning motorlari va turli qismlaridan yangi mashinalar yasayman.

Xullas, o'g'il bolachasiga gapni qisqa qilaylik-da, bundan buyog'iga barcha ishlaringiz besh bo'lishiga kelishib olaylik. Va'dangizni ustidan, albatta, chiqasiz, degan umiddamiz. Axir «Yigit so'zidan, arslon izidan qaytmaydi», deydlar.

Sayyora
QODIROVA



Ammo orangizda biroz o'ylanib: «Ha, endi o'g'il bola o'rta baholarga o'qisa ham bo'ladi-da», deyayotganlar ham topiladi. Ana shunday tengdoshlarin-gizga o'rta miyonalik yigit kishiga aslo yarashmasligini eslatib qo'ymoqchimiz. Axir shuning uchun xalqimizda «Mana bu o'g'il bolacha ish bo'libdi. O'g'il bolaning gapi bitta bo'ladi», degan gaplar bor. Qolaversa, uy vazifasini bajarmay, doska yonida, qizlarning ko'z o'ngida boshni egib turish sizga sira yarashmaydi. Ha, endi gapning indallosini o'g'il bolalarning o'zlaridan eshitaylik, deyayotgan qizlarga esa tengdoshingizning aytar so'zi bor.

Hamidullo MUHAMMADJONOV,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
149-umumta'lim maktabining 8-«B»
sinf o'quvchisi:

– 1-sinfligimdan o'ta-onam faqat a'lo baholarga o'qishimni tayinlar edi.

AKAM – VATAN HIMOYACHISI

**Har safar oynayi jahon orqali libosi o'ziga
yarashib turgan mard va jasur harbiylarni
ko'rganimda, yurtimiz tinch, hayotimiz
osudaligiga, shunday obod va ozod yurt qizi
ekanligimga ming bora shukur qilaman.**

Yaqinda akam har-

biy xizmatdan

qaytdi. Oilamiz

davrasida ular-

ni quvonch

bilan kutib ol-

dik. Oyimning

aytishicha,

tog'amni harbiy

xizmatga jo'na-

tishayotganida,

buvim bilan bobom

vokzalda uch kun

qolib ketgan, buning

ustiga farzandini uzoq

mamlakatga jo'natayotgan buvim poyezdning ortidan

ancha joygacha yugurib borgan ekan. O'sha paytlarda

o'zbek o'g'lonlari uzoq o'lkalarda, buning ustiga 2-3 yil

muddatga harbiy xizmatga safarbar qilingan ekan. Akam

esa Chirchiq shahrida xizmat qildi. Buvijonim hozirgi

dorilamon kunlarga ko'z tegmasin, deya qayta-qayta

duo qiladilar. Akamning ona Vatanimizga, Prezidentimizga

siddiqdildan xizmat qilishga qasamyod qilganlarini

eshitib, to'g'risi, ko'zlarimga yosh qalqdi. Ayniqsa,

harbiy garnizon tomonidan berilgan tashakkurnomani

ko'rib, akam ham Vatanimizning mard o'g'lonlari safida

ekanidan ko'ksim faxr-u iftixorga to'ldi.



Odina SAHOBIDDIN qizi,

Toshkent matbaa-noshirlik kasb-hunar kollejining
2-bosqich o'quvchisi

CHEKMAYSANMI,

«BOTANIK»?..

**Kolle-
jimizda har shanba tozalik va
obodonlashtirish kuni. Biz guruhimiz bilan o'quv
binosi orqasidagi katta maydonni tartibga keltiramiz.
Har safar bu hududni tozalaganimizda, bir uyum tamaki
mahsulotlarining qoldiqlarini yig'ishtirib olamiz. Shun-
da meni bir savol o'ylantiradi: «Bu tamaki mahsulot-
larini kim chekkan bo'lishi mumkin?»
O'qituvchilarmi yoki...**

Ta'lim maskanidagi tengdoshlaringiz orasida o'qib-o'rganayotgan, o'z kasbining sir-u asrorlarini mukammal o'zlashtirayotgan o'quvchilar talaygina. Ularning eng katta orzusi ota-onasining ishonchini oqlash, kelajakda oilasining chinakam tayanchi bo'lishidir. Ammo «Guruch kurmaksiz bo'lmaydi», deganlarideki, ba'zi yigitlar

faqatgina «ko'cha bolasi» bo'lish bilangina cheklanib qolmoqda. Achinarlisi shundaki, ularning barchasi bir kollejda tahsil oladi. «Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi», deganlarideki, har bir soniyasini qadrlaydigan o'smir yigit bekorchilikni, yengil hayotni kundalik rejasiga aylantirgan boladan ko'p yomon odatlarni o'zlashtiradi.

Guruhdoshlarim orasida «botanik» nomi juda mashhur. Shu so'z aytilishi bilan guruhda kulgi ko'tariladi. Yaqindabu so'zning



ma'nosini anglab yetgandek bo'ldim. Guruhdoshim Sanjarni hamma yigitlar shunday nom

bilan chaqirishar ekan. U juda harakatchan, qobiliyatli, fe'li og'ir-bosiq, kamgap yigit.

Uni kursdosh do'stlarimiz sigaret chekmaganligi, aqlli, odobli bo'lgani uchun shu nom bilan chaqirishar

bilamiz. Yoshlik davrini surgan yaxshi, ammo beodoblik qilib emas. Agar hamma o'qimishli yigitlar «botanik» nomi bilan mashhur bo'lsa, unda butun dunyo yigitlarining eng sarasi, mard va oliyjanobi ham aynan shu «botanik»lardir.

Bir guruh do'stlari orasida bema'nilik bilan nom qozongan yigitlarga shunday degim keladi: «Qayerda, kim bilan bo'lsang ham seni tarbiyalagan insonlarni hech qachon uyaltirib qo'yma!»

Mardona ZOKIROVA,
Angren axborot
texnologiyalari va sanoat
kasb-hunar kolleji
3-bosqich o'quvchisi

ekan...
Tamaki mahsulotining foydasidan ko'ra zarari ko'pligini hammamiz yaxshi

YANGI RUKN: ODOB DARSLARI

Hushtak chalish ko'proq bolalar, o'smirlarga xos bo'lgan «qiziqarli mashg'ulot». Lekin hushtak chalish qanchalar maroqli bo'lmasin, uni qayerda, qachon chalishni bilish kerak. Bo'lar-bo'lmasga, jamoat joylarida, kattalar davrasida, to'y-ma'rakalarda, ma'rifiy-madaniy uchrashuvlarda hushtak chalish aslo odobdan emas.

Ba'zi bolalar o'rtoqlarining nomlarini aytilish o'rni, hushtak chalib chaqiradilar. Bu yaxshi emas. Ayrimlar esa tanaffuslarda quloqni qomatga keltirib, guruh bo'lib hushtak chaladilar. Aslida, bu shovqin nimaga va kimga kerak? Boshqa bir hushtakbozlar maktabda biror-bir sana munosabati bilan zalda yoki sinf xonasida yig'ilganlarning asablariga tegadilar. Ular go'yo musobaqa o'ynayotgandek, bir-birlaridan o'tkazib, baland ovozlarda hushtakka erk beradilar. Zal hushtakbozlikka to'lib-toshadi. Hech narsani eshitib bo'lmaydi. Bu holni yaxshi odat deb hisoblaydiganlar katta xato qiladilar.

bo'ladi. Negaki, hushtak chalib yurish umuman millatimiz mentalitetiga aslo to'g'ri kelmaydi. O'zini o'zbekman deb hisoblagan odamga mutlaqo yarashmaydigan salbiy odat. Jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtaida hushtak chalish katta gunoh hisoblanadi. Biz taniqli va sevimli xonandamizga ana shu fikrlarni yana bir bor eslatib qo'ymoqchimiz.



Hushtak asosan, maktablar o'rtaida bo'ladigan sport o'yinlarida, masalan, tennis, boks, futbol, voleybol singari sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar jarayonida o'z komandasini qo'llab-quvvatlash maqsadida chalinadi. Shunda ham baland ovozda emas, balki me'yorida chalingan hushtak musobaqa qatnashchilarini g'alabaga ruhlantiradi.

Shuningdek, darslardan tashqari paytlarda, dalalarda mol-qo'yalarini boqayotgan, bog'lar va tomorqa yumushlarida o'z xohishlari bilan ota-onalariga yordam berayotgan yosh do'stlarimiz zerikmasliklari uchun bemalol hushtak chalib yoki hushtakda biror kuyni xirgoyi qilib ishlasalar, bundan kayfiyatli ko'tariladi...

Endi ba'zan qizlarning hushtak chalayotganiga nima deysiz? Bir o'qituvchining aytishicha, sinflarda o'g'il bolalardan ko'ra, hushtak chaladigan qizlarning ko'payib borayotgani tashvishli hol. Agar maqolani o'qigan qiz bolalardan biri: «Nega unda xonanda Ziyoda Qobulova hushtak chalib qo'shiq aytadi?», deb savol bersa, bu tabiiy, o'rinni

Yana bir muammo: ba'zan boshqa uylar, mavzelarda turadigan bolalar qo'shni hovlilarga, mavzalar atrofiga o'rnatilgan o'rindiqlarga o'tirib, yarim tungacha baqir-chaqir qilganlari yetmagandek, odamlarning hushtak chalib uyqularini buzishlariga nima deysiz? Bunisi endi ortiqcha emasmi?

Bolaligimizda: «Hushtak chalma, uyga o'g'ri tushadi», deb o'rgatishar edi. Biz o'g'ridan qo'rqqanimiz uchun ham zinhor hushtak chalmadik. Aslida, bu iboraning zamirida ham odob-axloq yotganligini keyin tushunganmiz. Haqiqatan, uyda, kattalar, ota-onalar davrasida churillatib hushtak chalib yurganlar odob ko'chasidan o'tmagan va tarbiya ko'rmagan bolalar hisoblanadi.

Shunday ekan, ashaddiy hushtakboz bolalar har joyda «chur-chur»lab yurmasliklarini, atrofdagilarning asablarini buzmasliklarini va eng muhimi, hushtak chalish odobini o'rganib olishlarini istardik.

Bilib qo'ying, qachon, qayerda va me'yorida hushtak chala bilish ham tarbiya hisoblanadi. Iloji bo'lsa, asabbuzar va bema'ni hushtakdan yiroq bo'ling.

Ashurali JO'RAYEV

Tahririyatdan: maqolada dolzarb mavzu qalamga olingan. Siz ham muallifning fikrlariga qo'shilasizmi yoki boshqacha mulohazadamisiz? Bu haqda tahririyatga yozib yuborishingizni so'raymiz.

Axloqli kishi hatto o'z hayotidan ayrilgan taqdirida ham do'stlari va Vatani uchun ko'p ishlarni qiladi.

ARASTU

«SINFIMIZDA BUYUM YO'QOLDI» maqolasini o'qib...

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» ijodkorlari! Biz gazetaning har bir sonini muntazam kuzatib boramiz. Undagi maqolalarni qiziqish bilan o'qiydiz. Jumladan, gazetaning 2017-yil 20-noyabr sonida chop etilgan «Sinfimizda buyum yo'qoldi» maqolasi meni juda qattiq ta'sirlantirdi. Sinf rahbarimiz Sanobar opa Quryazova avvalgi sinfida bir o'quvchi o'rtog'ining narsasini olgani, keyinchalik u to'g'ri yo'lga kirgan bo'lsa-da, sinfdoshlari biror buyum yo'qolsa, undan gumon qilishini aytib berdilar. Shundan keyin o'g'irlik yomon odat ekanligini angladik.

O'g'irlikning katta-kichigi bo'lmaydi. Birovning narsasiga ko'z olaytirish, uning buyumiga ega chiqish, so'ramasdan olish eng yomon odat hisoblanadi. Ustozimiz, «Agar kim o'g'irlik qilsa, uyidan baraka qochadi», deb ko'p marta takrorlaganlar. O'quvchining bunday noma'qul ishga qo'l urishiga befarq qaramasligimiz, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatishimiz lozim, deb o'ylayman.



Mohichehra ATABEKOVA, Dilmurod HASANOV,
Shahrizoda RUSTAMOVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
19-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchilari

Tahririyatdan: 2017-yilda bu sinf o'quvchilari juda faol bo'ldilar. Sinfda o'tkazilgan tadbirlar, maktabdagi iqtidorli o'quvchilar haqidagi maqolalari gazetamiz sahifalarida yoritib borildi. Bu borada 19-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Sanobar opa Quryazovaga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Bolalar, xorazmlik o'quvchilardan siz ham o'rnak oling. Gazetada chop etilayotgan maqolalar haqidagi fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

Aziz o'quvchilar! Sahifalarimizni yanada qiziqarli, mazmun-mundarijasini boyitish maqsadida gazetamizning o'tgan yilgi 42-sonida «Tong yulduzi» so'rovnomasini e'lon qilgan edik. O'tgan vaqt davomida siz zukko o'quvchilardan taklif va mulohazalar bitilgan juda ko'plab maktablar oldik va eng ma'qullarini chop etib bordik. 2018-yilda ham yangi-yangi takliflaringiz bitilgan maktablaringizni sahifalarimizda berib borishni niyat qilganmiz. So'rovnomada ishtirok eting hamda takliflaringizni yuboring.

SO'ROVNOMAGA JAVOB YOZDIM



1. Men «Tong yulduzi» gazetasiga 2018-yil uchun birinchilardan obuna bo'ldim.

2. Menga gazetada berib borilayotgan she'r va hikoyalarni o'qish zavq bag'ishlaydi. O'ylaymanki, gazeta va jurnal mutolaa qilganlar hayot sinovlarida qiynalmaydi va bu sinovlarni o'zining aql tafakkuri bilan yengib o'tadi.

Men gazetamda berilayotgan mulohazali, tahliliy, tanqidiy maqola hamda hikoyalarni katta qiziqish bilan o'qiyman. Ma'mura G'ulomova tayyorlaydigan ingliz tili sahifasi orqali chet tili bo'yicha olgan bilimlarimni mustahkamlayman. Shuningdek, tengdoshlarimning ijodlarini doim kuzatib boraman. Kuzgi ta'tilda

buvim bilan poytaxtga sayohatga borganimda, y'z she'rlarim va maqolalarimni tahririyat xodimlariga ko'rsatdim. Ularning maslahatlariga amal qilib, o'zimni qiziqitirgan mavzularda maqolalar yozayman.

3. Muqaddas Islom dinining yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni doir maqolalar chop etilishini istardim. Yurtimizda yashab o'tgan hamda hozirgi kundagi diniy ulamolarimiz, ularning muqaddas Islom dinini targ'ib qilish yo'lidagi ibratli ishlari, yaratgan asarlari bilan tanishishni xohlayman.

Yoqutxon SODIQJONOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'qon
shahridagi 22-umumta'lim
maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi

**Bilim ham hunar ol,
qadrla uni,
Bilim ham, hunar ham,
qadrlar uni!**

NILUFARGA «P» HARFI QOLDI

Nilufar maktabdan jig'ibiyron bo'lib qaytdi. Onasi ajablanib, undan so'radi:
— Senga nima bo'ldi, qizim, kim xafa qildi?

Yuragi to'lishib turgan Nilufar yig'lashga tushdi. Onasi battar xavotirga tushdi:

— Ayt, nima bo'ldi?
— Ustozim Gulshoda Rajabova, — dedi ko'z yoshlarini to'xtatmay, — «Alifbe» bayramiga yodlagan she'rlarimni hammasini bolalarga bo'lib berdi. Menga bitta «P» harfi qoldi...
Onasi kulib dedi:

— Bolam, yuragimni yorib yuboray deding-ku! Shungayam yig'laysanmi?! O'rtoqlaring ham sen kabi she'r yodlasa yomonmi?!

— Men barcha harflarga bir o'zim she'r aytmoqchi edim, — dedi Nilufar tutoqib.

Chindan ham nabiram Nilufarga Ochil Tohirning «Harflar jamlanmasi» kitobini olib bergandim. Kitobning harflarga bag'ishlab bitilgan she'rlarini bir haftaga qoldirmay yodlab chiqibdi. U «Alifbe» bayramiga barcha she'rni yolg'iz o'zim aytaman, deya o'ylagan

ekan. Shuning uchun yig'labdi.

Bolalikning beg'ubor dunyosida sayr etsak, mana shunga o'xshash ajabtovur voqealarga duch kela-veramiz. Nabiram Nilufar «Alifbe» bayramiga ko'proq she'r o'qisin, deb uning tilidan she'r yozdim:

**Harflarni o'rgandim,
«Alifbe» kitobidan.
Bilim olib ulg'aydim,
Ezgulik oftobidan.**

**Rahmat sizga, muallim,
Rahmat senga, kitobim.
Sen yo'limni yoritding,
Mening nurli oftobim.**

**Bayram zavqi dilimga,
Soldi quvonch, hayajon.
Yo'linga gul to'shaydi,
Ona yurt O'zbekiston!**

**Nilufar
MIRZAYEVA,
Sariosiyo
tumanidagi
7-umumta'lim
maktabining
1-sinf
o'quvchisi**



Endi nabiram faqat «P» harfigagi-na emas, balki «Alifbe» bayramiga bag'ishlab she'r ham o'qiydigan bo'ldi.

Nilufar, nima bo'lganda ham yig'laymay, dunyoning bor she'rlarini yodlayver. Bir kun yuksak cho'qqilarga chiqib, butun borliqqa she'r o'qisang, ajabmas...



AXTAMQULI

KERAKLI KITOB

Xo'p ajib zamonda yashayotirmiz: to'rt tarafimiz mo'jizalarga to'la...

Biz teng avlod odamlari bolaligida o'qigan ehtaklar va o'sha ehtaklardagi sirli-sehrli hodisotlarining aksariyati allaqachonlar chinga aylanib ketdi; ketdigi-na emas, hatto ehtaklarni lol qiluvchi haqiqatlar paydo bo'ldiki, hayratdan yoqa ushlaymiz: internet, kompyuter olami, telefondagi qitmir o'yinlar... ayniqsa, kelajak egalari bo'lmish yosh avlodni o'rgimchak to'riday o'rab, chirmab borayotir. Soatlab kompyuterga termilib kerak-nokerak voqealar girdobiga cho'mib o'tirguvchi bolalarga qarab turib quvonishniyam, tashvishlanishniyam bilolmay qoladi, gohida kishi. To'g'ri, bugun bolamni AKT, ya'nikim, axborot texnologiyalaridan ayricha holatda o'stiraman, deyish manqurtlik.

Ammo bu xatar bolangni qulga aylantirish darajasida kuchayib borayotgan bo'lsa-chi? Bu tahdid jigarbandingni har qanday fojidan mudhish va ayanchli oqibatlariga yetaklashi ham ayon haqiqat bo'lsa-chi? Qanday yo'l tutishi kerak farzand tarbiyasi uchun kunma-kun muhimdan-muhim bo'lib borayotgan bunday zamonda? Nima qilsak jondan aziz farzandlarimizga to'g'ri va foydali yo'l ko'rsatgan bo'lamiz?

Mirzapo'lat Toshpo'latovning «Mo'jiza» nomli kitobida jamlangan hikoyalar aynan shunday dolzarb mavzularning badiiy talqiniga bag'ishlangani bilan qimmatlidir.

**Abdusaid KO'CHIMOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

Obid ko'p qavatli uylarning uchinchi qavatida yashaydi. Chor tomonga yelib-yugurayotgan odamlar, turfa xil daraxtlar, osmono'par binolar uning diqqatini tortmaydi. U texnikaga shunchalik qiziqadiki, telefon, kompyuterlarni osongina dasturlay oladi. Faqat bitta qusuri bor. Ovqatlanayotganda ham, uxlashidan oldin ham shapaloqdek telefondan ko'zini uzolmaydi. Ba'zi bolalarga o'xshab xiyobon, istirohat bog'i, kinolarga bormaydi. Kitob o'qimaydi. Bilgani faqat internet. Unga faqat telefon bo'lsa bas, butun dunyoni unutadi. Onasi do'konga chiqarsa ham yo'l-yo'lakay bu matohdan ko'zini uzmaydi. Shifokor ko'zoynak taqishni, telefon, kompyuterdan vaqtinchalik uzoqroq bo'lishni maslahat berdi.

Shundan keyin otasi Mu-zaffar aka ularni berkitib tashladi. Dadasidan xafa bo'lgan Obid hech kim bilan gaplashmay qo'ydi. Qovoq-tumshuq qilib ovqat yemaydi. Onasi Navbahorning qistovi bilan naridan-beri ovqatlanadi.

Obid yana bir yangi odat chiqardi. U ovloq joydagi internet-kafenini topib, o'sha

yerda kechgacha kompyuter o'ynaydigan bo'ldi. Ota-ona xunob, farzandining qayerdaligini bilishmaydi. Qidirishadi. Topisholmaydi. Bir kuni internet-kafe egasi Obidning nimjon jussasiga, so'lg'in ko'zlariga qarab, unga rahmi keldi. Kompyuterni o'chirib, Obidni

— Navbahor opa, meni ma'zur tutasiz, lekin Obidni shifokor ko'rigidan o'tkazing, — dedi.

Onasi Obidni quchoqlab, yelkasini, boshlarini siladi:

— Xafa bo'lma, o'g'lim. Dadangga aytaman, telefo-

Kech kirib, otasi ishdan qaytdi. Hamma stol atrofiga yig'ildi. Navbahor odob bilan turmush o'rtog'iga choy uzatarkan:

— Dadasi, Obidjonning telefoni va kompyuterini qaytarib bering. O'ksib, kasal bo'lib qoldi.

Otasi bir ayoliga, bir

emasmi? O'zimizda ham ayb bor. Qo'lga telefon emas, kitob tutqazishimiz kerak edi. Yaxshisi, ertaga Obidni do'xtirga olib boramiz.

Shu topda qizi Nargiza gapga aralashdi:

— Dada, dada, maktabda akamni «Telefon jinnisi», deyishadi.

Obid singlisiga yovqarash qildi.

— Vey, sen jim bo'lg'in!

Shifoxonada odam gav-jum. Kimdir farzandini, yana kimdir onasini yetaklagan.

Shifokor Obidning yurak urushini, nafas olishini yaxshilab tekshirdi. Nursiz ko'zlariga qarab, achinib, boshini sarak-sarak qildi:

— O'g'lingizda kamqonlik, toliqish bor. Maslahatim, davolanishdan so'ng, toza havoda, tabiat qo'ynida dam olsin.

Ota-ona Obidni qo'lidan ushlagancha kayfiyatsiz do'xtirga qaradi:

— Tog'da biron dam olib kelsa, qanday bo'larkin?

— Faqat telefonsiz borsin, — dedi do'xtir. Toza havoda shifo topsa, ajabmas.

Mirzapo'lat TOSHPOLATOV

SIRLI SIRTMOQ (MO'JIZA+ JODU+ SEHR+ TUZOQ)

yoniga chaqirdi.

— Uka, kasalga o'xshaysan, yaxshisi, shifokorga bor. Bor, ketaqol. Men ham ketaman, senga o'xshagan adashgan bolalarni ko'rib, qiynalib ketdim.

Obidning jahli chiqib, tashqariga o'tildi. Uyga borsa, o'qituvchisi onasi bilan gaplashib o'tirgan ekan. Onasi o'g'lini ko'rib:

— Qayerlarda yuribsan? Darsing tugaganiga ancha bo'libdi-ku, — dedi jahl bilan. O'qituvchi o'rindan turar ekan:

ningni qaytarib beradi. Faqat bir shartim bor: yaxshi o'qiyсан, darslaringni qoldirmaysan.

o'g'lga qaradi:

— O'g'lingni kasal qilgan shu kompyuter bilan telefon



Inson hayotining eng beg'ubor damlari bolalik chog'lariga to'g'ri keladi. Ana shu betashvish, quvonch-u shodliklarga boy damlarni mazmunli tashkillashtirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni katta.

BOLALIKKA SAYOHAT

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan 414-maktabgacha ta'lim muassasasi bolajonlarning sevimli maskaniga aylangan. To'liq ta'mirdan chiqqan muassasa o'yinchoqlar uchun yangi shkaflar, metodik qo'llanmalar uchun

javonlar bilan jihozlandi.

Eng quvonarlisi, muassasadagi issiqlik tizimi o'tgan yil kuz mavsumida to'liq almashtirildi. O'lkamizda qish mavsumi bo'lishiga qaramay, endi tarbiyachilar o'yin-mashg'ulotlarini issiqqlina xonalarda tashkillashtirishadi.

Muassasada ayni kunda badiiy gimnastika, raqs va musiqa, rus tili, shashka va rasm yo'nalishlari bo'yicha to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Bayram dasturlarida bolajonlar to'garaklarda o'rgangan bilim va ko'nikmalarini ota-onalar va mehmonlar oldida namoyish etishadi. Shuningdek, kichikintoylar hududda joylashgan «Matonat» mahalla fuqarolar yig'inida o'tkaziladigan bayram tadbirlarining doimiy ishtirokchilari.

Bolajonlar qo'lga kiritayotgan yutuqlar ham talaygina. Ular o'tgan yil tuman maktabgacha

Every person is born with talent.

(Har bir inson iste'dodli tug'iladi).

Angelou MINTOS



ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari o'rtaida o'tkazilgan «Oltin Humo» festivalida rasmlar ko'rgazmasi bilan qatnashib, faol ishtiroki uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Ha, aytmoqchi, yo'l patrul xizmati xodimlari doimiy ravishda bolajonlar bilan uchrashuvlar o'tkazishadi va yo'l harakati qoidalari yuzasidan amaliy mashg'ulotlar uyushtiradi.

Nurbek QIDIRALIYEV

Lesson 2

MY COUNTRY - MY PRIDE (Mening yurtim - mening faxrim)

Motherland... It is sacred and incomparable soil. Its peace and independence are the greatest wealth. Homeland is a heritage of the past. We are living to enjoy the peace on days in payment for wrestling and courage of forefathers. Brilliant future is developing of Motherland under the open sky living in freedom. Today, we are happy children of the country which has great future that influential people lived like Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Ibn Sina, Alisher Navoi. It is my country and my pride. I live on soil of Motherland which is unique, not similar, and alone among the world. I can say this word with pride "We will be your devoted, Uzbekistan!" The day of defenders of Motherland is the great state holiday and it is observed in broad and spectacular way. Because initially every man is the defender of his home and Motherland.

Dinora BEGDULLAYEVA,
the pupil of lyceum under Karakalpak State University

English riddles



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

1. They come at night without being called and lost in the day without being stolen.
2. Take off my skin, I won't cry, but you will. What am I?
3. What can fill a room?
4. The more there is the less you see.
5. What has to be broken before it can be used?
6. It has no top or bottom but it can hold flesh bones, and blood all at the same time?

S _ _ _
O _ _ _
L _ _ _
D _ _ _ _
E _ _ _
R _ _ _




Your teacher
Ma'mura G'ULOMOVA

HOW MANY WORDS CAN YOU FIND? (Qancha so'zlar topa olasiz?)



E	M	A	P	P	E	Z
C	O	M	F	O	R	T
T	O	G	O	K	I	O
K	N	H	T	F	S	P
Q	S	F	E	E	E	P
O	U	D	V	L	J	W
L	N	E	E	W	d	B
E	G	W	R	A	N	D

IMPROVE YOUR ENGLISH



1. A loaf of bread.
2. A piece of paper.
3. A bunch of banana.
4. A bunch of grapes.
5. A piece of advice.
6. A can of Sprite.
7. A bowl of soup.
8. A tub of margarine.
9. A carton of milk.
10. A kilo of sugar.



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Now, try to make up the sentences.

Dinora ABDULLAJONOVA

**Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit,
tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi.
Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.**

Ibn SINO

**Tong
yulduzi**

**Xurram RAYIMOV,
bolalar shoiri**

BAYROG'IM SEN O'ZBEKNING ORI!

Hilpirayver, to'xtama hech ham,
Sensan axir yurt iftixori.
O'zingsan-ku, bizning ilk qadam,
Bayrog'im sen o'zbekning ori.

Yetti asrkim porlaysan hali,
Temur qo'rgan qizil mash'ali.
E'zozlaydi har o'g'il-qizing,
Ximolayda ham bordir izing.

Qizil qonim senda mujassam,
Tasviringda bor osmonim ham.
Tinchlik ramzi o'rtada oppoq,
Janubda-ku yam-yashil o'tloq.

Ta'rifingni kam aytdim bilmam,
Tasviringga yetmasmi so'zim.
Ayta so'zim butun bir olam,
Kerak bo'lsa asray bir o'zim.

She'rim oxir shuni aytaman,
Sensan axir yurt iftixori.
Yuksaklarga tutib qaytaman,
Bayrog'im sen o'zbekning ori.

**Sevarbek ELBOYEV,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf
o'quvchisi**

U OLAMDA BETAKROR

Bir hovuch tuprog'ing ham,
Giyoh-u yaprog'ing ham.
So'lim go'sha bog'ing ham,
Tabarruk bizga har dam.

Kechalari tinch tuning,
Sababi nedur buning?!
Erkin, obod chamanim,
O'zbekiston Vatanim.

Bosgan qadaming mag'rur,
Ko'ksimda baland g'urur.
O'zbekiston noming bor,
U olamda betakror.



**Mohinur DEHQONOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi**

QUYOSH

Ulashasan bizga nur,
Olamiz sendan surur.
Sening tanho nuringdan,
Ko'karadi bog'-u gul.
Saxiyliging tengsizdir,
Bizlar yashayapmiz hur.

**Sultonbek HOTAMOV,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
29-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi**



BEG'UBOR OLAM

Bolalikdek beg'ubor dunyo,
Bola erur olam surati.
Bir-biri deb yaralgan go'yo,
Olam erur bola siyrati.

Qaysi yurtning yurtboshisi, rost,
Bolam, deydi elning bolasin.
E'zozlaydi ko'targancha dast,
Quchib go'yo tog'ning lolasin.

Faqatgina O'zbekistonda,
Kuzatilar shundayin holat.
Bolalarga duch kelganida,
Yurt rahbari zavqlanar bot-bot.

Bolajonlik fazilatlarini,
Shu o'lkaga juda tushgan xos.
Bunday go'zal qadriyatlarini,
Qadrlaydi jahon o'zga mos.

Dunyo xalqi, g'afatdan qoching,
Yaxshi aylang barcha niyatni.
Bola kabi olamga soching,
Musaffollik, samimiyatni.



KENGURU

Qorningdagi to'rxaltadan olib joy,
Dilband yashar qo'shilishib o'zingga.
Yer-u ko'kka ishonmassan hoynahoy,
Jondan aziz ko'rinar u ko'zingga.

Qani edi dunyodagi bor jonot,
Bu sehmri yuragiga joylasa.
Qani edi barcha tirik mavjudot,
Farzandiga sendek mehr boylasa.



«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Aziz nabiraginam! Tinib-tinchimasim. Men seni dangasalikda ayblay olmayman. Lekin judayam mehnatsevar ham deya olmayman. Sen biror ishga unnalsang, ko'pincha ishning ko'zini bilmaysan. Bu tabiiy hol. Chunki senda hali tajriba yo'q-da. Ishning ko'zi degani nima degani, hech jahonda ishning ham ko'zi bo'ladimi, dersen? Bo'ladi, bo'ganda qandoq. Odatda ishning ko'zi uyquda bo'ladi. Uning ko'zini — g'afatdagi ko'zini ochish kerak. Ko'zi charaqlab, chiroyli ochilsagina ish bajarilgan bo'ladi.

Mana, men senga yaqinda bo'yog'i o'chib ketgan eshikni bo'yashni ko'rsatdim. Oldin cho'tkani bo'yog' tekkizib, shoshmasdan eshikka ko'ndalangiga yurgazib chiqdim. Keyin cho'tkani uzunasiga yurgazdim. Davom ettir, deb cho'tkani qo'lingga berdim. Sen nima qilding? Cho'tkani

qo'limdan olib, xuddi bunaqa ishlarni ilgari qilib yurgandek shoshib ishga kirishib ketding. Bu ish senga juda qiziq



**Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan jurnalist**

ISH VA DIQQAT

tuyuladi. Men ataylab indamay kuzatib turdim. Oqibat shu bo'ldiki, ishing ko'zi ochilmadi. Uyuqsuraganicha

qoldi. Bo'yog' tekkan joylar yaraqlab ketmadi. Xuddi yamoq tushgandek bo'lib qoldi. Xo'sh, bu yerda qanday xatoga yo'l qo'yding? Avvalo, men cho'tkani sekinlik, muhojirlik bilan yurgazayotganimga e'tibor qilmading, bolalik qilib, shoshilding. Buni o'miga: «Doda-jon, nima-ga cho'tkani oldin ko'ndalangiga, keyin uzunasiga yurgazding?» deb

so'rashing kerak edi. Ha, shunday deyingingni kutdim. So'raganingda,

men: «Bo'yog'ni ko'ndalangiga yurgazsang, bo'yog' eshikka yaxshilab o'rnatilib oladi, keyin cho'tkani uzunasiga yurgazganingda, eshik bo'yog'ni kam yeydi va silliq bo'lib chiqadi», degan bo'lardim.

Shuning uchun kattalar ish buyurganda avvalo, xayolingni yig'ib ol, ularning ko'zlariga qara, keyin so'zlarini diqqat bilan eshit. Bilmagan narsangni so'ra, so'rashdan uyalma. So'rash hamisha bolajonlarning haqqi. Biz javob berishga burchlimiz. Kattalar biron ish bilan band bo'lsalar-u, sening yordamingga muhtoj bo'lmasalar ham, ularga salom ber-da, ishlarni diqqat bilan kuzat. Shunday kuzatginki, xotirangda mahkam o'rnatilib qolsin. Shunchaki tomoshabin bo'lma. Bu dunyo tomoshaxona emas, o'rganish, o'rganishlariga amal qilishdir.

(Davomi bor)



GURLANLIK MOHINUR

O'tgan oyning 24 - 25-dekabr kunlari poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Eron, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari sportchilari o'rtasida karate bo'yicha Markaziy Osiyo chempionati bo'lib o'tdi.



Musobaqada Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Mohinur Miskinova ham muvaffaqiyatli ishtirok etdi. U turnirning jamoa kumite bahslarida 47 kg vaznda 2-o'rinni egalladi.

— O'zbekiston bayrog'i baland ko'tarilganda, dilimda Vatanga bo'lgan iftixor tuyg'usi jo'sh urdi, — deydi sportchi. — Musobaqa bahonasida ko'plab do'stlar orttirdim. Muvaffaqiyatlarga erishishimda barcha ustozlarim qatori murabbiylarim Hakim Fatxutdinov va Xo'jamqul Xo'jaqulovning o'rni katta bo'ldi.

Mohinur 4 karra O'zbekiston chempioni, 3 karra jahon kubogi va chempionati hamda Osiyo birinchiligi sovrindori bo'lgan. Yosh, intiluvchan, shijoatkor, bilimga chanqoq sportchimiz kelajakda Olimpiada musobaqalarida birinchilikni qo'lga kiritib, mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilishni maqsad qilgan. Biz Mohinurga orzulari ushlab qolishga tilakdoshmiz.

Shukrulla G'ULOMOV

ERISHILGAN MUVAFFAQIYATLAR — O'ZIMIZNIKI!

Angrenlik o'quvchilar ta'lim-tarbiya va sport sohasidagi yutuqlari bilan har qancha faxrlansa arziydi. Qo'lga kiritilayotgan yuksak natijalar bu manzilda tajribali ustoz-murabbiylarning ko'pligidan dalolatdir. Angren shahri ta'lim sohasi yo'nalishi bo'yicha respublika miqyosida 26 reyting yo'nalishida 1-o'rinda ekanligi ham e'tiborga loyiq.



Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, 2017-yilda o'quvchilarning 48 nafari respublika fan olimpiadasi viloyat bosqichida ishtirok etib, ulardan 16 nafari faxrlar 1-, Olimpiadaning yakuniy natijalariga ko'ra, Angren shahri respublikada 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, «Bilimlar bellashuvi»da besh nafar o'quvchi sovrindor bo'ldi. «Jaholatga qarshi ma'rifat» respublika ko'rik-tanlovida 43-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Pokiza Nasibaliyeva g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Angren shahri o'quvchi-yoshlari sport musobaqalarida ham munosib o'rinni egallamoqda. Jumladan, M. Abdulazimova, Z. Murodaliyeva, B. Mukumxonov, B. Miryusupov, F. Murodaliyeva, D. Qodirqulova, G. Mirzaliyeva erishgan yutuqlar maqtovga loyiq.

Shuningdek, Angren shahar 12-umumta'lim maktabining 10-«A» sinf o'quvchisi Umid Abduraimov sportning yengil atletika turi bo'yicha Buxoro shahrida o'tkazilgan mamlakat chempionatida 1-o'rinni egallab, Qirg'izistonning Bishkek shahrida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada uzunlikka hamda balandlikka sarkashda 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

— Erishilgan har bir muvaffaqiyat — o'zimizniki! Bu esa barcha hamshaharlarimiz ko'nglini g'urur va iftixorga to'ldiradi, — deydi shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri Sherzod Mirzakarimov. — Yuksak natijalarni saqlab qolish va mustahkamlash biz pedagoglar zimmasiga tinmay izlanish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish mas'uliyatini yuklaydi.

M. ALIMOV

G'ayrating qanotingdur.

Jaloliddin RUMIY

GANDBOLCHILARIMIZ G'OLIB BO'LDI

Sport insonning ham jismonan, ham ma'n'an barkamol shaxs bo'lib kamolga yetishida muhim o'rin tutadi.

Shu bois, yurtimizda kamol topayotgan yosh avlod o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror topirish, ular iste'dodini sport orqali

ro'yobga chiqarish borasida qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning chekka-chekka hududlarida zamonaviy sport inshootlari, o'yingohlar, suzish havzalari barpo etilib, zarur inventarlar bilan jihozlanayotir. Ayniqsa, farzandlarimiz orasida gandbol sport turining ommalashib borayotgani yangi-yangi nomlar kashf etilishiga turtki bo'lmoqda.

Kuni kecha Singapurda yosh o'g'il-qizlar o'rtasida gandbol bo'yicha 5-Janubi-Sharqiy Osiyo chempionati o'tkazildi. Ushbu nufuzli musobaqada O'zbekiston, Singapur, Xitoy, Xitoy Taypeyi, Yaponiya, Janubiy Koreya va Makao terma jamoalari g'oliblik uchun o'zaro bellashdi.

Aytish kerakki, o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda mamlakatimiz sharafiga himoya qilgan gandbolchilarimiz ajoyib o'yinlari bilan muxlislar olqishiga sazovor bo'ldi. Yakunda atletlarimiz barcha raqiblarini ortda qoldirgan holda oltin medalga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, qizlar terma jamoamiz turnirda munosib ishtirok etdi. Ular finalga qadar bo'lgan yo'lni muvaffaqiyatli bosib o'tib, yakunda kumush medal bilan taqdirlandi.

Sa'dullo TURSINOV



NAMANGANLIK CHEMPIONLAR

Bugungi kunda Namangan viloyatining Pop tumanida 16 356 nafar o'quvchi muntazam ravishda sportning futbol, qo'l to'pi, basketbol, voleybol, yengil atletika, stol tennisi, minifutbol, shaxmat-shashka, badiiy gimnastika, kurash, belbog'li kurash, dzyudo, erkin kurash, armrestling, taekvando, boks turlari bo'yicha shug'ullanib kelishmoqda. Sportchi-o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyatlari maqtasa arzigulik.



Jumladan, tumanning 4-umumta'lim maktabida tahsil oluvchi aka-uka Shahzodbek, Sherzodbek va Bekzodbek Arslonovlar o'z iste'dodlari bilan «Indigo» qobiliyatli bolalar Respublika tanlovida ishtirok etib, 2-o'rinni qo'lga kiritishdi.


Xuddi shu maktabning 9-sinf o'quvchisi Barno

Malikova dzyudo bo'yicha 16-19-yanvar kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan Olimpiada saralash bosqichida ishtirok etadi.

2017-yil 10-13-noyabr kunlari Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida belbog'li kurash bo'yicha 2004-2005-yillarda tug'ilgan o'g'il va qiz bolalar o'rtasida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida 34-umumta'lim maktabi o'quvchisi Jasmina Sodiqova 40 kg vazn toifasida 1-o'rin, 23-umumta'lim maktabidan Sherzod Jo'rayev o'z vazn toifasida 1-, 1-umumta'lim maktabi o'quvchisi Asomiddin Zokirjonov 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Shuningdek, 2017-yil 16-19-noyabr kunlari Jizzax shahrida 1999-2001-yillarda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida belbog'li kurash bo'yicha O'zbekiston chempionatida 67-umumta'lim maktabi o'quvchisi Ahmed Umrzoqov 1-o'rinni egalladi.

N. JAVHAROVA



Avtoportret

Anvar Mirzayev serqirra ijodkorlardan. U bolalarga quvnoq she'rlar, topishmog'-u tez aytishlar, krossvordlar tuzishni yoqtiradi. U ijodini maktabda o'qib yurgan kezlaridan, qo'lingizdagi gazetaga kichik xabarlar, topishmoqlar yo'llab turishdan boshlagan.

Anvar Mirzazodaning boshqotirmalar, krossvordlar tuzishni san'at darajasiga ko'tarishda o'ziga yarasha hissasi bor. Hamkasbimizni qutlug' 70 yoshni qarshilayotgani bilan muborakbod etamiz. Unga uzoq umr, ijodiy barkamollik tilaymiz.


Foziljon ORIPOV

KROSSVORD

Krossvord so'zlari yetti harfli bo'lib, kataklarda berilgan so'zlarning sinonimini yozing.

Bo'yiga: 1. Jumladan. 2. Donishmandlik. 3. Sochpopuk.

Eniga: 4. Bir xil. 5. Nazokat. 6. Qanchalik.




Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA

TOPISHMOQLAR

Kun bilan Tun,
Teng kelar kun.
Qachon bo'lar?
Topgan bilar.



Elakda un
Eladi,
Dasturxondek
Elladi.



Uchta faslda,
Tomda yashar,
Sovuq qishda,
Tomdan tushar.
Yetaklashib -
Ukam Yashnar,
Chaqchaqlashib,
Birga o'ynar.



BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«ONA VATAN POSBONLARI» TOPQIRLIK MASHQLARI

KRIPTOGRAMMA Chizmaning tomonlardagi raqamlarda «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining «Fuqarolarning burchlari» bobida qayd etilgan so'zlar yashiringan. Uni quyidagi kalit so'zlar javoblari orqali bilib oling.

Davlat ramzi - 19, 3, 17, 10, 1, 20, 3.

Oliy qo'mondonlik tarkibiga berilgan harbiy unvon - 23, 8, 6, 8, 5, 3, 12.

Harbiy okrug joylashgan Vatanimizning eng janubiy shahri - 15, 8, 5, 19, 1, 14.

Harbiy qismlarni boshqaruvchi asosiy organ - 21, 15, 3, 2.

Harbiylarning muntazam qatori - 4, 3, 22.

Harbiy mashq, qurollar sinovi o'tkazish maydoni - 16, 7, 12, 1, 23, 7, 6.

Miltiqning barcha qismlarini tutib turuvchi va otish oldidan yelkaga tirab turiladigan qismi 18, 13, 6, 17, 7, 18.

Jismoniy energiya, quvvat - 9, 11, 24.

KROSSVORD Diagonal bo'yicha o'ngga: 1. Yirik harbiy qism yoki qo'shin boshlig'i.


8. Davlatning barcha qurolli kuchlari majmui. 9. Dushman-dan saqlanish uchun bunyod etilgan mustahkam mudofaa vositalari majmui.

Diagonal bo'yicha chapga: 1. Shijoati, dovyurakligi, botirligi bilan shuhrat qozongan, mardlik ko'rsatib, o'zini tanitgan inson. 7. Jangda qozonilgan muvaffaqiyat, zafar. 9. Yuqori darajadagi ijodiy qobiliyat, layoqat.

Eniga: 2. Maqoldan: «... maydonda sinaladi». 10. Avtomat qurolning patron joylashadigan aylana shaklidagi o'qdoni.

Bo'yiga: 6. Harbiy maktab o'quvchisi.

Harflar bo'yicha «zanjir» holida: 3. Harbiy mahoratni egallash maqsadida bajariladigan sinov, tayyorgarlik mashg'uloti. 4. Askarning sodiqlik haqidagi rasmiy va'dasi. 5. O'zaro yaqin bo'lgan, o'rtoq kishi. 11. Dushman-dan saqlanish, himoya qilish uchun zarur vosita va choralar majmui. 12. Davlatning harbiy kuchlari uchun qurol-aslaha ishlab chiqarish korxonasi. 13. To'p, zambarak stvoli o'rnatilgan dastgoh.



Tuzuvchi: Kamola TOSHXO'JAYEVA

8

8-yanvar 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilmiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 66009
Buyurtma - V 848

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilina-
di, mualliflarga qaytaril-
maydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushan-
ba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08